

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 529 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIIY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
ТЕМИР YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHIQARISH QUUVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY Tajribalari	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB Olish Texnologiyasi	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIBOĖO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: MEJDUHARODNYY OPIYT I REGIONALNAYA ADAPTIATSIYA	471
Usmanova Aziza Bahodirovna	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqn To'ymurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI	482
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA BANK KREDITLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	489
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O'RNI	494
Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI	500
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
MILLIY SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INSON KAPITALINING O'RNI	506
Yunusov Foziljon G'ulomqodirovich	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINI FLOTATSIYALASHDA REAGENT REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH	511
Shodiyev Abbas Ne'mat o'g'li, Egamberdiyev Baxtiyor Barat o'g'li	
EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI BO'YICHA MUDDATI O'TGAN DEBITOR QARZDORLIKNI ANIQLASHDA RAQAMLI SOLIQ NAZORATI MONITORINGINING QO'LLANILISHI VA SAMARADORLIGI	517
Tashmuxeamedov Dilmurod Mirabzalovich	



SOLIQ SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI	522
Jurayev Xusan Atamuratovich	



SOLIQ SALOHIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI

Jurayev Xusan Atamuratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi PhD

Email: xusan_jurayev@tues.uz

ORCID:0009-0003-9805-9712

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq salohiyatining iqtisodiy mazmuni, uning shakllanish qonuniyatlari va soliq tizimidagi strategik o'rnini yoritilgan. Tadqiqot davomida soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirishda ushbu ko'rsatkichning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, soliq bazasini kengaytirish va soliq yig'iluvchanligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Maqola soliq siyosatini takomillashtirish va soliq yukini optimallashtirish masalalari bilan qiziquvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: soliq salohiyati, soliq tizimi, iqtisodiy mazmun, soliq bazasi, budjet daromadlari, soliq siyosati, fiskal samaradorlik, soliq yukini optimallashtirish, soliq tushumlari, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract. This article discusses the economic content of tax capacity, the laws of its formation and its strategic role in the tax system. During the study, the factors affecting tax capacity were analyzed and the importance of this indicator in stabilizing state budget revenues was substantiated. Also, ways to ensure the country's economic growth by expanding the tax base and increasing tax collection were considered. The article is intended for specialists interested in improving tax policy and optimizing the tax burden.

Keywords: tax capacity, tax system, economic content, tax base, budget revenues, tax policy, fiscal efficiency, optimization of the tax burden, tax revenues, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическое содержание налогового потенциала, законы его формирования и стратегическая роль в налоговой системе. В ходе исследования проанализированы факторы, влияющие на налоговый потенциал, и обоснована важность этого показателя для стабилизации доходов государственного бюджета. Также рассмотрены пути обеспечения экономического роста страны путем расширения налоговой базы и увеличения налоговых поступлений. Статья предназначена для специалистов, заинтересованных в совершенствовании налоговой политики и оптимизации налогового бремени.

Ключевые слова: налоговый потенциал, налоговая система, экономическое содержание, налоговая база, бюджетные доходы, налоговая политика, фискальная эффективность, оптимизация налогового бремени, налоговые поступления, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Soliq salohiyati tushunchasi shunchaki yig'ilgan soliqlar miqdori emas, balki iqtisodiyotning muayyan rivojlanish bosqichida soliq to'lovchilarga ortiqcha og'irlik tushirmagan holda safarbar etilishi mumkin bo'lgan maksimal moliyaviy resurslar ko'lamini ifodalaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari doirasida soliq yukini kamaytirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu jarayonda soliq salohiyatini to'g'ri baholash davlat budjeti parametrlarini aniq rejalashtirish va hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bois soliq salohiyatining iqtisodiy mazmunini chuqur o'rganish va uning soliq tizimidagi o'rnini belgilash ilmiy va amaliy jihatdan juda dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq salohiyati tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ushbu tushunchaning mazmunini ochib berishda jahon va mahalliy olimlarning qarashlarini uchta asosiy yo'nalishga ajratish mumkin.



Ushbu yondashuv vakillari soliq salohiyatini mamlakatning umumiy iqtisodiy resurslari bilan bog'laydilar. Xususan, R. Musgrave va P. Musgrave o'zlarining Public Finance in Theory and Practice (1989) asarlarida soliq salohiyatini (tax capacity) iqtisodiyotning soliq bazasini tashkil etuvchi real daromadlari sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, soliq salohiyati — bu davlatning iqtisodiy o'sishga zarar yetkazmagan holda safarbar etishi mumkin bo'lgan maksimal resurslaridir. [1]

Soliq stavkalari va salohiyat o'rtasidagi bog'liqlikni A. Laffer o'zining mashhur "Laffer egri chizig'i" nazariyasi orqali tushuntirib bergan. Uning ta'kidlashicha, soliq yukining haddan ziyod yuqori bo'lishi soliq to'lovchilarning faolligini pasaytiradi va natijada real soliq salohiyatining qisqarishiga olib keladi. [2]

MDH davlatlari olimlari, jumladan V. Panskov va I. Gorskiy, soliq salohiyatini ko'proq amaldagi soliq qonunchiligi bilan bog'laydilar. I. Gorskiyning fikricha, soliq salohiyati — bu muayyan hududda amaldagi soliq stavkalari sharoitida soliq bazasidan undirilishi mumkin bo'lgan soliq daromadlarining prognoz miqdoridir. Bu yondashuvda soliq ma'murchiligi va yig'iluvchanlik ko'rsatkichlariga asosiy e'tibor qaratiladi. [3]

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar soliq salohiyatini milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi nuqtayi nazaridan o'rganganlar. A. Jo'rayev o'zining ilmiy ishlarida soliq salohiyatini hududiy rivojlanish omili sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, soliq salohiyati nafaqat amaldagi tushumlar, balki hali soliqqa tortilmagan, lekin kelajakda daromad keltirishi mumkin bo'lgan manbalarni ham o'z ichiga oladi. [4]

O. Voxidov o'zining doktorlik dissertatsiyasida soliq salohiyatini baholashda "yashirin iqtisodiyot" ulushini hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Uning qarashlariga ko'ra, soliq salohiyatining to'liq yuzaga chiqmasligiga soliqdan qochish va soliq imtiyozlarining samarasizligi sabab bo'ladi. [5]

Sh. Toshmatov soliq salohiyatini oshirishning asosi sifatida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ko'rsatib o'tgan. [6]

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq salohiyati murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Agar klassiklar unga iqtisodiy imkoniyat sifatida qaragan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotchilar uni soliq ma'murchiligi va institutsional muhit bilan uzviy bog'liq deb hisoblamogda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning rasmiy statistik bazalaridan olindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, dinamik va strukturaviy tahlil usullari yordamida o'rganildi, shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan soliq salohiyati o'rtasidagi bog'liqlik korrelatsion yondashuv asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq tizimida soliq salohiyati degan tushuncha qo'llaniladi. Tarixiylik jihatdan ilmiy yondashilganda soliq salohiyati tushunchasi ilmiy adabiyotlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qo'llanilgan. Jumladan, ilmiy izlanishlarda davlat moliyasi va soliq siyosatini baholashga doir izlanishlar kuchaygan davrda shakllangan, asta-sekin moliyaviy sektorda amaliy jarayonga aylanib borishi bilan bir qatorda makro-mikro iqtisodiy fiskal tahlilning muhim kategoriyasi sifatida ilm-fanga kirib kela boshladi. Ushbu iqtisodiy kategoriyaning ilmiy-amaliy tushuncha sifatida iqtisodiyotga kirib kelishi bir necha bosqichlarda sodir bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Darhaqiqat, bu tushunchaning 1950-1970-yillarda dunyo amaliyotida davlat budjeti va soliq tushumlarini prognoz qilish muammosi yuzaga kelishi bilan shakllangani kuzatiladi. Chunki Ikkinchi jahon urushidan keyin davlatlar iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish uchun soliq tushumlari hajmini aniq baholashga ehtiyoj seza boshlagan edi, bu davrlarda soliqlardan olinadigan "potensial tushumlar"ni o'lchashga doir nazariy yondashuvlar paydo bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, soliq salohiyati ham bir qator omillar ta'sirida shakllanadi, ularning tarkibiy o'zgarishi sodir bo'ladi, ularning biridan ikkinchisiga aylanishi vujudga keladi, o'sish va kamayish tendensiyasiga ega bo'lib turadi. Barcha darajalarda soliq salohiyatini to'g'ri aniqlab (baholab) borish esa uning darajasiga ta'sir qiladigan omillar va ularning ta'sirini baholab borish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borgan aksariyat olimlarning ilmiy yondashuvlarini e'tirof etgan holda, bunda iqtisodiy taraqqiyot darajasini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi.

Agar iqtisodiy nazariy jihatdan qaralganda, YaIM va soliq tushumlari o'rtasida kuchli pozitiv va korrelatsion bog'liqlik mavjud. Ya'ni, agar iqtisod o'ssa, tabiiyki daromad, iste'mol va foyda o'sadi, bu esa real soliq salohiyatini ifodalaydi. Mohiyatan olib qaralganda, bunday o'sish natijasida soliq bazasi kengayib, soliq tushumlari o'sadi. Bu yerda soliq salohiyatining real soliq tushumlariga aylanishi ikki jihatdan sodir bo'ladi. Birinchidan, agar soliq salohiyati bevosita daromad va foyda shaklida bo'lsa, soliq nazariyasiga ko'ra soliqlarning asosiy manbai daromad (foyda)ga qaratilganligi sababli bu shakldagi soliq bazasining nisbatan ko'proq, ya'ni soliq salohiyatining soliq tushumlariga aylanishi yuqori bo'ladi. Bu esa milliy yoki hududlar doirasida soliq tushumlarini oshirishda soliq salohiyatidan samarali foydalanish uchun bunday shakldagi (daromad, foyda) soliq salohiyatini

oshirishni taqozo etadi. Ikkinchidan esa ishlab chiqarish fazasining turli doiralarida o'z shakli va mazmunini o'zgartirgan holda, amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq bazasini shakllantiradigan soliq salohiyati manbalari va omillari iqtisodiy jihatdan mavjud bo'lib, ularning bilvosita tarzda soliq salohiyatini shakllantirishi ro'y beradi. Mamlakat va hududlar miqyosida amalga oshiriladigan soliq siyosatida bunga alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'ladi, ya'ni iqtisodiy siyosatning yo'nalishi taraqqiyotga qaratilishi bilan birgalikda real soliq salohiyatini shakllantirishga ham yo'naltirilishini taqozo etadi.

Bu qayd etilganlar davlatning iqtisodiy-moliyaviy siyosatining mazmunini ifodalasa, soliq salohiyatining shakllanishi va darajasiga bozor qonunlari ham muhim rol o'ynaydi. Buni oddiy misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yalpi qo'shilgan qiymat muhim soliq salohiyati va soliq bazasi hisoblanadi. Agar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi "A" yilda 250 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarib, shu yilda uning 50 mln so'mligini realizatsiya qilgan taqdirda, hisobga olingan QQSni e'tiborga olgan holda 6 mln so'm soliq to'laydi, bu yerda soliq salohiyati maksimal 6 mln so'mni tashkil qiladi. Agar keyingi "V" yilda 300 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqargan holda sotilgan mahsulot hajmi 200 mln so'mni tashkil qilsa, bunda korxona miqyosidagi soliq salohiyati 24 mln so'mni tashkil qiladi. Bunda korxonaning soliq yuki 4 martaga oshganligi davlatning soliq siyosati bilan emas, balki bozor qoidalari (mahsulotga bo'lgan talabning oshishi)ga muvofiq yuzaga kelganligini ifodalaydi. Bu yerda, tabiiyki, soliq salohiyatining darajasi oshishiga bozor qonunlari ta'sir qiladi. Shundan kelib chiqib, ta'kidlash lozimki, soliq salohiyatining darajasiga omillar ta'sirini institutsional jihatdan davlatning moliyaviy siyosati va bozor qonunlari doirasida ham qarash lozim bo'ladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, soliq yuki va soliq salohiyati ham o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.

YalMning soliq salohiyatiga ta'siri ma'lum bir mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Bunda soliq bazasining kengayishi muhim rol o'ynaydi. YalMning o'sishi ma'lumotlar doirasida soliq bazasining kengayishiga olib keladi, ya'ni bunda aholi va korxonalar daromadlari oshadi, iste'mol va savdo hajmi o'sadi hamda ulardan soliq tushumlari ham ortadi, bu jarayonda daromad solig'i, QQS va foyda solig'i muhim hisoblanadi. Bu mexanizmlarda soliq tizimining avtomatik reaksiyasi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, YalMning o'zgarishi avtomatik tarzda soliq tushumlariga ta'sir qiladi, iqtisodiy o'sish paytida daromad soliqlari va QQS tushumlari kengayadi. Bu soliq tizimining avtomatik stabilizator sifatida integratsiyalangan xususiyatini ifodalaydiki, YalMning o'sishi bilan oldingi yillarga nisbatan soliq tushumlari dinamik ravishda o'zgarib borishi soliq salohiyatining oshishini bildiradi.

Soliq salohiyatiga YalMning omilli ta'sirini ifodalashda soliq-YalM nisbati — "Tax-to-GDP" ko'rsatkichi ham muhim sanaladi. Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda YalM va soliq tushumlari munosabatini ko'rsatish uchun soliq tushumlarining YalMga nisbatan ulushi (Tax-to-GDP Ratio) ishlatiladi, ushbu ko'rsatkich mamlakatning soliq darajasi va salohiyatini baholash uchun muhim instrument ekanligini bildiradi. Buning afzalligi shundaki, soliq tushumlari YalM o'sishi bilan korrelyatsiyada bo'lib, uzoq muddatda soliq tushumlari YalM bilan birga o'sadi, davlatning moliyaviy barqarorligi va soliq tizimi samaradorligini xalqaro miqyosda taqqoslash imkoniyati yuzaga keladi. YalMning o'sishi soliq to'lovchilar bazasining kengayishiga ta'sir qiladi, muayyan iqtisodiy qog'ozlar va bozorlar faoliyati kengayganda soliq obyektlari ham ko'payadi, shu orqali budjetga tushadigan soliqlar miqdori va salohiyati oshib boradi.

YalMning soliq salohiyatiga omilli bog'liqligini iqtisodiy tahlillarda iqtisodiy jarayonlarda ikki tomonlama ta'sir mavjudligini anglatuvchi nazariy-ekonometrik tushuncha hisoblangan "ovozi-effekt munosabati"dan ham keng foydalaniladi. Bu esa iqtisodiy sikl va soliq tushumlarining bog'liqligini ko'rsatadiki, YalM o'zgarishi iqtisodiy sikllar bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy o'sish davrida soliqlar tez sur'at bilan ortmaydi, chunki ma'lum muddat salohiyatni ta'minlash va ma'muriy hajm talab etiladi, iqtisodiy retsessiya davrida esa soliq tushumlari tezda kamayadi. Bu holat soliq salohiyatini huquqiy va iqtisodiy sharoitlar bilan birga tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, YalM iqtisodiy faoliyat hajmini aks ettirgani uchun uning o'sishi soliq bazasini kengaytiradi va soliq tushumlarining o'sishi uchun zarur iqtisodiy sharoit yaratadi. Shunday qilib, YalM va soliq tushumlari o'rtasidagi mustahkam pozitiv munosabat soliq salohiyatini tahlil qilishda fundamental element hisoblanadi, YalMning soliq salohiyatiga ta'siri ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv va budjet mablag'larini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi.

Investitsiya va soliq salohiyatining bog'liqligi avvalgi bobda qisqacha tavsiflab o'tilgan edi. Shu sababli soliq salohiyatiga makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida milliy iqtisodiyotda import va eksportning ta'siri hamda omilli bog'lanishini qisqacha ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, import operatsiyalari tashqi bozorlardan tovarlar, xizmatlar va kapitalning milliy iqtisodiyotga kirib kelishi bilan bog'liq iqtisodiy jarayon bo'lib, u soliq salohiyatiga asosan bojxona orqali soliq tushumlari, ichki bozordagi soliq bazasining shakllanishi va iqtisodiy faollikka ta'siri orqali ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, import operatsiyalarining soliq salohiyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri mavjud. Birinchidan, ushbu jarayon soliqlar va to'lovlar orqali davlat soliq salohiyatini oshiradi, bojxona bojlari import qilingan tovarlarga qo'llaniladigan bojlar sifatida davlat budjeti uchun muhim daromad manbai hisoblanadi. Iste'mol tovarlari importi soliq salohiyatini qisqa muddatda oshiradi. Bu yerda QQS ham muhim rol o'ynaydi, ushbu soliq turi



import QQS ko'plab davlatlarda soliq tushumlarining barqaror manbai hisoblanib, import hajmining o'sishi QQS bo'yicha soliq bazasini kengaytiradi. Aksiz soliqlari esa alkogol, tamaki va yoqilg'i kabi tovarlar importida yuqori soliq salohiyatiga ega bo'lib, aksizlar orqali fiskal samaradorlik ta'minlanadi.

Import jarayonining soliq salohiyatiga ta'siri bevosita va bilvosita doirada namoyon bo'ladi. Ichki bozorda iqtisodiy faollikning oshishi, ya'ni import qilingan xomashyo va texnologiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirganda, foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i va ijtimoiy soliqlar bazasi kengayadi. Boshqa tomondan, milliy iqtisodiyotda iste'mol bozorining kengayishi import tovarlari orqali raqobat muhitini kuchaytiradi va iste'mol o'sishi hisobiga QQS tushumlari ko'payadi. Bu jarayon o'z navbatida inflyatsiya va narxlarga ta'sir ko'rsatadi, import inflyatsiyani cheklashi mumkin, bu esa real soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlaydi, biroq valyuta kursining o'zgarishi soliq bazasining beqarorligiga olib kelishi mumkin.

Shunga asoslanib aytish mumkinki, import jarayonlari mahalliy ishlab chiqarishning qisqarishiga ham olib kelishi mumkin. Ya'ni ortiqcha import mahalliy ishlab chiqaruvchilarni bozordan siqib chiqarishi oqibatida foyda solig'i va ish haqiga bog'liq soliqlar bazasi qisqaradi. Shu bois soliq bazasining tashqi omillarga bog'liqligini inobatga olish zarur, chunki soliq salohiyatining tashqi bozorlar, valyuta kurslari va logistika omillariga kuchli bog'lanib qolishi budjet barqarorligi uchun xavf tug'diradi. Boshqa tomondan, QQS va bojxona imtiyozlari soliq salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishini cheklashi mumkin, import bo'yicha moliyaviy va soliq imtiyozlarining samaradorligi har doim ham yuqori bo'lavermaydi.

Ta'kidlash lozimki, soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar ichida iqtisodiy-moliyaviy omillardan tashqari institutsional omillar ham o'ziga xos ta'sir kuchiga ega. Soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi institutsional omillar deganda iqtisodiy subyektlarning xulq-atvorini belgilaydigan qonunlar, qoidalar, normalar va tashkilotlar tizimi tushuniladi. Ushbu omillar soliq munosabatlarida soliq salohiyatining shakllanishi va ro'yobga chiqish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatib, mohiyatiga va ta'sir doirasiga ko'ra soliq salohiyatini shakllantirish (soliq bazasi), amalga oshirish (yig'uvchanlik darajasi) va barqarorlashtirish (uzoq muddatli fiskal imkoniyatni yaratish) xususiyatiga ega bo'ladi hamda ularning ta'siri bir necha yo'l bilan jumlasiga soliq qonunchiligi sifati (aniq va barqaror qonunchilik investitsiya faolligi, daromad o'sishi va soliq salohiyatining oshishini ta'minlaydi), soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi (ma'muriy xarajatlarni tejaydi), korrupsiya va huquqni qo'llash sifati (ishonchning kuchayishi), institutsional ishonch va soliq madaniyati (soliq madaniyati oshsa, parallel ravishda soliq salohiyati va soliq bazasi orqali soliq tushumlarining oshishi ta'minlanadi), mulk huquqlarining himoyasi (iqtisodiy individlarda mulkka bo'lgan ishonchning ta'minlanishi investitsiyalarning kuchayishiga va shu orqali qo'shimcha soliq salohiyatining yuzaga kelishiga olib keladi) orqali soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi vosita va jarayonlarni keltirish mumkin. Bu omillarning ta'siri turli holatlarda namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Ya'ni, ular ikkilamchi ta'sirga ega bo'lib, iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi, institutsional islohotlar natijasining vaqt o'tib ko'rinishi esa kechikkan samara sifatida baholanadi. Qonunchilik, ma'muriyat va ishonchning sifat jihatdan yaxshilanishi ko'p kanalli omillarning ijobiy jihatlarini namoyon etadi. Ushbu omillarning nolinyelik xarakterda bo'lishi esa ma'lum chegaradan keyin ta'sirning keskin oshishini bildiradi, hududiy farqlanishlarning saqlanib qolishi esa institutsional muhitning bir xil emasligini ko'rsatadi.

Soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar turli-tuman bo'lib, ularning xususiyatlari va ta'sirini baholash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning ayrimlarini qisqacha tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Bu borada dissertatsion tadqiqot olib borgan mahalliy olimlarimizdan professor S.Xudoyqulov soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni tavsiflab, "soliq salohiyati darajasiga ta'sir etuvchi omillar ma'lum mezonlariga ko'ra guruhlariga, ya'ni iqtisodiy, moliyaviy va boshqa omillarga ajratiladi. Mazkur omillar turli darajadagi soliq salohiyatiga turlicha ta'sir kuchiga ega bo'lib, ular o'z navbatida bir-birini to'ldirib turadi hamda o'zaro ta'sirda bo'ladi. Ular umumiy holda soliq salohiyatining darajasini belgilab boradi. Soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar orasida moliyaviy omillarning muhim xususiyati shundaki, ular soliq salohiyatining hajmiga tez ta'sir etadi. Bular jumlasiga budjet-soliq siyosatining mazmuni va uning yo'nalishlari (xarajatlarning taqsimlanishi, soliq stavkalari va imtiyozlarining belgilanishi) kiradi. Moliyaviy omillar jumlasidan pul-kredit siyosati ham tez ta'sirchan omillar sirasiga kirib, pul agregatlarining hajmi, foiz stavkasi (qayta moliyalash stavkasi) darajasi, kredit tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarish sohasiga moliyaviy resurslarni taklif qilish (kreditlash) mexanizmlari iqtisodiyotda pul shaklidagi moliyaviy resurslarning darajasi va holatini belgilab beradi. Provvardida esa ishlab chiqarishni rag'batlantirib, yangi soliq salohiyatlarining vujudga kelishiga ta'sir etadi", deb ta'kidlaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan L.Bozorova "Budjet daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo'nalishlari" maqolasida soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni ichki va tashqi omillarga bo'lib guruhlagan holda "soliqqa tortiladigan bazaga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillarni ham hisobga olish kerak. Bular: iqtisodiyotdagi to'lovsizliklar, ish haqi bo'yicha qarzdorlik va boshqalar. Asosiy soliq to'lovchilarning soliq bazasining o'zgarishiga, ularning moliyaviy ahvoriga va hisob-kitoblar shakllariga ta'siri albatta tahlil etilishi lozim. Hududning iqtisodiy, moliyaviy va soliq potensialini hisoblash uchun axborot bazasi asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Ushbu axborot bazasi hududning iqtisodiy o'sishi va shunga mos holda mahalliy budjetlarga soliq tushumlari hajmining o'sish imkoniyatlarini aniqlashga sharoit yaratadi. Bu mahalliy budjetlarni shakllantirish

uchun muhim. Chunki ularda hududlarning yuqori budjetdan oladigan moliyaviy yordamlari, subvensiyalar va dotatsiyalarga ehtiyoji real aks ettiriladi”, deb ta’kidlaydi.¹

Xorijlik olimlardan P.Magomedov esa ilmiy tadqiqotlarida “soliq salohiyatiga ta’sir etuvchi ko’plab omillarni (obyektiv hamda subyektiv omillarni) hisobga olgan holda mintaqaviy budjet daromad bazasini oshirish zaxiralarini aniqlash imkonini ilmiy jihatdan asoslaydi. Uning ilmiy yondashuviga ko’ra, bir tomondan amaldagi soliq qonunchiligi, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi, uning tarmoq tuzilishi, joriy narxlar darajasi va dinamikasi, eksport va import hajmi hamda tuzilishi ta’sir qilsa, ikkinchi tomondan mintaqaviy soliq siyosatining holati, taqdim etiladigan imtiyozlar va kechiktirishlar doirasi va boshqa omillar ham ta’sir qiladi”, degan ilmiy g’oyani ilgari suradi.²

Rossiyalik olima Ye.Lyatina ham boshqa olimlar singari soliq salohiyatiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilgan holda “ichki omillarga soliq qonunchiligidagi o’zgarishlar, soliq yuki darajasi va budjet tizimining turli darajalarida soliqlarni hisoblashni tartibga soluvchi ko’rsatkichlar kirsas, tashqi omillarga geografik joylashuv, tabiiy va iqlim sharoitlari, aholi soni, iqtisodiy rivojlanish darajasi, sanoat tuzilishi va ixtisoslashuvi, korxonalarning moliyaviy holati, soliq, budjet va sanoat siyosati hamda soliq ma’muriyatchiligini aks ettiruvchi omillar kiradi”, deb ta’kidlaydi.³

Mahalliy olimlarimizdan O.Meyliyev hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda soliqlarning ta’sirchanligini oshirishga oid ilmiy tadqiqotlarida “hududiy iqtisodiyotni boshqarishning hozirgi zamon amaliyoti aynan mahalliy soliq siyosati hamda joylarda soliq salohiyatini oshirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda. Soliq salohiyatining iqtisodiy ahamiyati hududlar moliyaviy salohiyatini va ularda soliq siyosati samaradorligini oshirish zarurligida yaqqol namoyon bo’lmoqda. Shu bois hududlar soliq salohiyatiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish asosida mavjud muammolarni yoritish va ularni hal etish yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish muhim”, deb hisoblaydi.⁴

Soliq salohiyatining omillari va ularning xususiyatlari borasida ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqib, umumiy tarzda ilmiy xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, soliq salohiyatining darajasi YalM va yalpi qo’shilgan qiymatga bog’liq bo’lgan holda, agar ishlab chiqarish hajmi oshsa, soliq bazasi kengayib boradi. Sanoat va xizmatlar ulushi yuqori bo’lgan iqtisodiyotlarda soliq salohiyati barqaror bo’ladi, yuqori qo’shilgan qiymat soliq tushumlarini ko’paytirish imkonini beradi, iqtisodiy o’sish va inqiroz esa soliq salohiyatini o’zgaruvchan qiladi. Shuningdek, ishga layoqatli aholi ulushining ortib borishi soliq to’lovchilar sonini belgilash orqali soliq salohiyatiga ta’sir qilsa, iqtisodiyotda bandlik darajasi to’g’ridan-to’g’ri daromad va ijtimoiy soliqlar bazasiga ta’sir qiladi, mehnat migratsiyasi esa soliq bazasini qisqartiradi yoki qayta taqsimlaydi.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotda agar soliq qonunchiligi barqaror bo’lsa, u uzoq muddatli soliq salohiyatini ta’minlashning asosi bo’ladi. O’z navbatida, soliq ma’murchiligi samaradorligi ta’minlansa, soliqlarning yig’iluvchanligi oshishiga olib keladi, soliq stavkalari va imtiyozlar tizimining qay darajada ishlashiga bog’liq holda esa soliq bazasi kengayadi yoki qisqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq salohiyati — dinamik kategoriya. U faqatgina bugungi kunda yig’ilayotgan soliqlar miqdori emas, balki iqtisodiyotning mavjud resurslari (tabiiy, moliyaviy, insoniy) asosida shakllanishi mumkin bo’lgan maksimal fiskal imkoniyatdir. Soliq salohiyati davlat budjetini rejalashtirishda “o’lchov birligi” bo’lib xizmat qiladi. Uning noto’g’ri baholanishi soliq yukining asossiz ortishiga yoki budjet taqchilligiga olib keladi. Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko’rsatadiki, soliq salohiyatini oshirish uchun faqatgina jazo choralari emas, balki raqamli shaffoflik va aholi bilan ochiq muloqot (rag’batlantirish tizimi) eng samarali usuldir. O’zbekiston sharoitida soliq salohiyatining to’liq yuzaga chiqishiga to’sqinlik qilayotgan asosiy omil iqtisodiyotning norasmiy sektori va ayrim tarmoqlardagi samarasiz soliq imtiyozlaridir.

O’zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq salohiyatidan samarali foydalanish va uni kengaytirish maqsadida quyidagi choralar taklif etiladi:

- 1 Л.Бозорова. “Бюджет даромадлари барқарорлигини таъминлашда ҳудудлар солиқ салоҳиятини ошириш йўналишлари”. иқтисод ва молия / экономика и финансы № 12, 2012.
- 2 Магомедов Пахрудин Омарович. Формирование и методика оценки налогового потенциала региона. Специальность: 08.00.10 - финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2011. с.26.
- 3 Лятина Елена Валериевна. Формирование и оценка налогового потенциала в России. Специальность: 08.00.10 - «Финансы, денежное обращение и кредит». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2020 г. Тольятти-2008, с.20.
- 4 Мейлиев Обид Рахматуллаевич. Худудий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлашда солиқларнинг таъсирчанлигини ошириш масалалари. 08.00.07—«Молия, пул муомаласи ва кредит» иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PHD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018 йил, 18 б.



1. Soliq ma'murchiligini "Koreya modeli" asosida raqamlashtirish. Iste'molchilarni soliq nazoratiga jalb qilish uchun Janubiy Koreyadagi kabi naqd pul cheklari (Cash Receipt) uchun keshbek miqdorini tabaqalashtirish va tizimni yanada soddalashtirish. Bu "yashirin" aylanmalarni avtomatik ravishda soliq bazasiga qo'shadi.

2. Fiskal desentralizatsiyani kuchaytirish (Xitoy va Qozog'iston tajribasi). Hududiy hokimiyatlarning o'z soliq salohiyatini oshirishdan manfaatdorligini kuchaytirish. Buning uchun tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan korporativ soliqlarning ma'lum bir qismini (masalan, 30–50%) to'g'ridan-to'g'ri mahalliy budjetda qoldirish mexanizmini kengaytirish.

3. Soliq madaniyatini yoshlikdan shakllantirish. Janubiy Koreya tajribasini qo'llab, umumta'lim maktablari o'quv dasturlariga "Soliq savodxonligi" darslarini kiritish. Soliq to'lash — bu davlat xizmatlarini (ta'lim, tibbiyot, xavfsizlik) sotib olish ekanligini aholi ongiga singdirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 1989.
2. Laffer A.B. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. – Heritage Foundation, 2004.
3. Gorskiy I.V. Nalogoviy potensial v mexanizme mejbudjetnix otnosheniy // Voprosi ekonomiki. – 2003. – № 6.
4. Jo'rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: Sharq, 2004.
5. Voxidov O.V. Soliq salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish. Iqt. fan. dok. diss. – T.: BMA, 2015.
6. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи 2020. – 640 б.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100